

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.F.05.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

NURMATOV BOBIR ABDUSATTOROVICH

**SAYFIDDIN QUTUZ SARKARDALIK FAOLIYATINI YOSHLARDA
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOYIY-
FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona– 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philosophical sciences**

Nurmatov Bobir Abdusattorovich

Sayfiddin Qutuz sarkardalik faoliyatini yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili3

Нурматов Бобир Абдусатторович

Социально-философский анализ полководческой деятельности Сайфиддина Кутуза в воспитании молодёжи в духе патриотизма23

Nurmatov Bobir Abdusattorovich

The Socio-Philosophical Analysis of Sayfiddin Qutuz’s Military Leadership in Educating Youth in the Spirit of Patriotism47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works51

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.F.05.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

NURMATOV BOBIR ABDUSATTOROVICH

**SAYFIDDIN QUTUZ SARKARDALIK FAOLIYATINI YOSHLARDA
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOYIY-
FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona– 2025

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1606 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz), "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xujayev Muminjon Isaxonovich
falsafafanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Egamberdiev Azizbek Abdumalikovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Omonov Baxodir Nurullaevich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/28.08.2024.F.05.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.(99873)244-44-02, faks: (99873) 244-44-93; e-mail:faru info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873)244-44-93.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlar doktori (DSc), professor

S.U.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlar doktori (DSc), dotsent

B.S.Ganiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va transmilliy madaniy-mafkuraviy oqimlarning kengayib borishi sharoitida yosh avlodning ijtimoiy ongini shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy shaxsiyatlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili alohida ilmiy va ma'naviy paradigmalar kontekstida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy identitetni mustahkamlash jarayonlarining muhim nazariy asosi sifatida qaralmoqda. Postindustrial jamiyat sharoitida global tafakkur bilan milliy ong uyg'unligini ta'minlash zarurati ortib borar ekan, sivilizatsion qadriyatlar, ijtimoiy adolat va erkinlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan madaniy-arxetipal meros sifatida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish dolzarblilik kasb etmoqda.

Dunyoda yoshlar ongini tarixiy xotira va milliy identitet asosida shakllantirish jarayoni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan insoniyat sivilizatsiyasining madaniy barqarorligi va aksiologik merosini saqlab qolishning muhim omili sifatida talqin etilmoqda. Global g'oyaviy raqobat, madaniy assimilyatsiya va axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy qahramonlar obrazining ijtimoiy ongda qayta konstruksiya qilinishi, aslida, tarixiy haqiqatni falsafiy refleksiyasi shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Sayfiddin Qutuz shaxsiyati – o'z davrining geosiyosiy muammolariga javoban vujudga kelgan qarshilik, madaniy suverenitet va ma'naviy jasorat timsoli sifatida – zamonaviy falsafiy tafakkurda “aksiologik yetakchilik” konsepsiyasining real namunasi hisoblanmoqda. Yoshlar tafakkurida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy-madaniy arxetip sifatida o'rganilishi zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilanganidek, “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni tarixiy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri”¹ bo'lib Sayfiddin Qutuz sarkardalik merosining falsafiy tahlili orqali yoshlar ongida ma'naviy va g'oyaviy immunitet hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga ega ilmiy izlanish, balki milliy g'oya va davlat strategiyasiga uyg'un yondashuv sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur yondashuv ijtimoiy-falsafiy tafakkur doirasida tarix, shaxs, jamiyat va ong o'rtasidagi murakkab dialektik bog'liqlikni ochib berish, ularni zamonaviy ijtimoiy ong shakllanishi jarayoniga integratsiyalash orqali falsafa fanining amaliy samaradorligini namoyon etmoqda. Bu esa tarixiy manba sifatida emas, balki uni ijtimoiy-falsafiy mohiyatini milliy taraqqiyotning zamonaviy talablariga mos kelishi bilan tadqiq etishga ehtiyoj ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2022 y., 4-son. - B. 7-9.

siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son, 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2995-son Qarorlari va mavzuga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sayfiddin Qutuzning sarkardalik faoliyati ijtimoiy-falsafiy tahliliga oid Prezident Sh.M.Mirziyoyev²ning inson va jamiyat uyg'unligini, tarixiy xotira va ma'naviy merosning yangicha talqinini ilgari suruvchi konseptual qarashlari bilan uyg'unlashib hozirgi davrda milliy-ma'naviy tiklanishning aksiologik asosi sifatida baholanishiga ilmiy asos yaratadi.

Arab va turkiy manbalarda Sayfiddin Qutuz shaxsiyati musulmon sivilizatsiyasining ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy birlikni tiklovchi ulug' siymo sifatida yoritiladi. Rashid ad-Dinning "Tarixlar majmuasi" asarida Qutuz faoliyati mo'g'ul istilosiga qarshi musulmon jamiyatining irodaviy uyg'unlashish namunasi sifatida talqin qilinib, uning siyosiy jasorati va ruhiy qat'iyati islom olamining o'z mustaqilligini saqlab qolishdagi muhim omil bo'lgani ta'kidlanadi³. Ibn 'Abd al-Zohirning "Zohir podshoh siyrati haqidagi go'zal bog'" asarida esa Sayfiddin Qutuzning xalqni bir yoqadan bosh chiqarishga, mo'g'ul bosqiniga qarshi ruhiy va harbiy safarbarlikka chorlagan yetakchilik fazilatlarini yuksak baholanadi. Muallif uni ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi, milliy g'urur va diniy e'tiqod uyg'unligini

²Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - B. 592.; Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. - B. 508.; Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. - B. 400.; Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. - B. 456.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va forovon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 408.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 520.; Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 392.; Mirziyoyev Sh.M. Bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - vatanimiz. 8-jild. - Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2024. - B. 344.

³ Rashid ad-Din. Tarixlar majmuasi (Jāmi' at-Tawārīkh) / tahr. Stefan Kamola. – Edinburg: Edinburg University Press, 2020. – B 656.

tiklovchi davlat arbobi sifatida ko'rsatadi⁴. Abu al-Fida o'zining "Insoniyat voqealari haqida qisqacha tarix" asarida Sayfiddin Qutuz faoliyatini umumislom tarixiy xotirasi doirasida falsafiy jihatdan yoritib, uni ummat ongida adolat, jasorat va birlik timsoli sifatida talqin etadi⁵. Ushbu manbalarning barchasi Sayfiddin Qutuzni musulmon dunyosining ijtimoiy barqarorligi, siyosiy mustahkamligi va ma'naviy uyg'unligini tiklashda beqiyos xizmat ko'rsatgan tarixiy shaxs sifatida yagonalikda tasvirlaydi.

Yevropa tarixshunosligida Sayfiddin Qutuz shaxsiyati mamluklar davlatchiligi doirasida musulmon Sharqining ijtimoiy-madaniy tiklanish jarayonini ifodalovchi tarixiy fenomen sifatida talqin etiladi. I.M.Filshtinskiy mamluklar hokimiyatini islom sivilizatsiyasining ma'naviy qayta tiklanish davri deb baholab, Qutuzni "reformatsion lider" — islom jamiyatida siyosiy va ma'naviy uyg'onish g'oyalarini uyg'unlashtirgan shaxs sifatida ta'riflaydi⁶. R.Irvin Qutuz faoliyatini musulmon dunyosining siyosiy konsolidatsiyasini ta'minlagan strategik rahbarlik namunasi sifatida tahlil etadi⁷, D.P.Little esa uni "Sharq sivilizatsiyasining mafkuraviy uyg'onish timsoli" deb baholab, uning faoliyati islom dunyosida iymon va adolat tamoyillarining yangicha mazmun kasb etishiga sabab bo'lganini ta'kidlaydi⁸. Turkiy tadqiqotchilar Ismoil Yigit, Bessam al-Asaliy, Ali Aqtan va Shehabiddin Tekindog' asarlarida esa Qutuz diniy legitimlik, ijtimoiy birdamlik va axloqiy fidoyilikni uyg'unlashtirgan rahbar sifatida ko'rsatiladi⁹.

O'zbekiston falsafiy tafakkurida Sayfiddin Qutuz fenomenining tadqiqi mustaqillik davrida shakllangan milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va vatanparvarlikni ma'naviy qadriyat sifatida asoslash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur jarayonda Qutuz shaxsiyati nafaqat tarixiy sarkarda, balki millatning ruhiy uyg'onish ramzi sifatida talqin qilinmoqda. Shaodat Ulug' "Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz" asarida ushbu obrazni xalqni ozodlik va adolat sari yetaklagan ma'naviy jasorat timsoli sifatida yoritib, uni g'oyaviy sobitlik va fuqarolik mas'uliyatining badiiy-falsafiy ifodasi sifatida ko'rsatadi¹⁰. F.Kenjayeov "Tarixiy qahramon va badiiy obraz" maqolasida tarixiy shaxs timsolining badiiy ifodasini tahlil etar ekan, Qutuz faoliyatini ma'naviy barkamollik, irodaviy qat'iyat va vatanparvarlikning aksiologik modeli sifatida baholaydi¹¹. Z.Aripova esa Qutuz faoliyatini Misr Mamluq sultonligi tarixiy-madaniy muhitida tadqiq etib, uni O'rta Osiyo falsafiy merosi, xususan, islomiy qadriyatlar tizimi bilan bog'laydi va bu jarayon orqali adolat, rahnamolik va sadoqat tamoyillarining uyg'unligini falsafiy

⁴ Ibn 'Abd al-Zohir. Zohir podshoh siyrati haqidagi go'zal bog' (Al-Rawḍ al-Zāhir fī Sīrat al-Malik al-Zāhir). – Qohira: Dār al-Kutub, 1976. – B 97–103.

⁵ Abu al-Fida. Insoniyat voqealari haqida qisqacha tarix (Al-Mukhtaṣar fī Akhbār al-Bashar). – London: Library of Congress Reprint Edition, 2015 (1837-yilgi Parij nashri asosida). – B 305–312.

⁶ Filshtinskiy I. M. Mamluklar davrida musulmon Sharqi madaniy hayoti. – Moskva: Nauka, 1999. – B 214–219.

⁷ Irwin R. The Middle East in the Middle Ages: The Early Mamluk Sultanate 1250–1382. – London: Routledge, 2002. –B 145–148-.

⁸ Little D. P. "Kutuz." In: The Encyclopaedia of Islam. – Leiden: Brill, 1995. – B 523–525.

⁹ Yigit Ismoil. Memluklar davlati tarixi. – Istanbul: Diyanet Vakfi Yayinlari, 2010. – B 178–182.

¹⁰ Shahodat Ulug'. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz: tarixiy roman. Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 44–47.

¹¹ Kenjayeov F.I. Tarixiy qahramon va badiiy obraz. // Jahon Uyg'onish Sarbast Rivojlanish jurnali, 2023. – B. 381–386.

asosda izohlaydi¹². Shu bilan birga, I.Saidov, X.Xudoyberdiyeva va A.Mirzayevlarning ilmiy izlanishlarida Qutuz timsoli yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy modeli sifatida talqin etilib, unda shaxsning g‘oyaviy yetukligi, tarixiy xotirasi va milliy mas‘uliyat hissi ijtimoiy taraqqiyotning ma‘naviy poydevori sifatida asoslab beriladi¹³. Shu nuqtai nazardan, Sayfiddin Qutuz fenomeni yoshlar ma‘naviy tarbiyasining falsafiy-aksiologik asoslarini yorituvchi konseptual model bo‘lib, u milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ongni mustahkamlash va jamiyat ma‘naviy yuksalishining gnoseologik negizini tashkil etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-son “O‘zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma‘naviy-axloqiy xavfsizlikni ta‘minlash konsepsiyalarining ahamiyati (2020-2025)” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Sayfiddin Qutuzning sarkardalik faoliyatini vatanparvarlik, fuqarolik mas‘uliyati va milliy g‘ururni shakllantiruvchi tarbiyaviy ideal ekanligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Sayfiddin Qutuz faoliyatining tarixiy-falsafiy mohiyatini aniqlash va uni zamonaviy ijtimoiy ongda aks ettirish vositasi sifatida talqin etish;

Sayfiddin Qutuzning shaxsiy namunasidan foydalanib, yosh avlodda vatanparvarlik, ma‘naviy yetuklik va tarixiy xotira madaniyatini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

Sayfiddin Qutuzning sarkardalik merosini ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida turli falsafiy kategoriyalar – mas‘uliyat, yetakchilik, g‘oya, jamiyat, ijtimoiy ong – bilan uzviy bog‘lash;

Sayfiddin Qutuz timsoli orqali tarixiy shaxslar merosini ta‘lim va tarbiya tizimiga integratsiyalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Sayfiddin Qutuzning sarkardalik faoliyati orqali yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayonida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-axloqiy, g‘oyaviy va ma‘naviy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Sayfiddin Qutuzning sarkardalik faoliyati misolida yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, tamoyillari va g‘oyaviy-ma‘naviy asoslari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi metodlariga tayanildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

¹² Aripova Z.J. Misr Mamluq Sultonligi va unda Islom dining tutgan o‘rni (1250-1517). - Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2008. – B 48.

¹³Saidov I.M. Yangi O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy omillari. Andijon. 2023. – B 44; Xudoyberdiyeva X.K. Milliy yuksalish jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma‘naviy-axloqiy muammolari. Samarqand: SamDChTI, 2024.– B 62; Mirzayev A.R. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari.Toshkent. 2024. – B. 48.

Sayfiddin Qutuz shaxsiyatining ekzistensial va aksiologik paradigmalari asosidagi yangi falsafiy talqini uning rahbarlik fazilatlarini "shaxsiy mavjudlikning ma'naviy ma'nosi" sifatida talqin qilinib, u vatanparvarlikning aksiologik modeli sifatida falsafiy jihatdan asoslab berilgan;

Mamluklar davridagi siyosiy jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy rekonstruksiya orqali Qutuz faoliyatining milliy g'urur va ijtimoiy birdamlik qadriyatlariga ta'siri ochib berilgan;

vatanparvarlik tarbiyasi va tarixiy shaxslar namunasi o'rtasidagi uzviy aloqadorlik madaniy xotira va ijtimoiy ong nazariyalari asosida falsafiy tahlil qilingan;

Sayfiddin Qutuz obrazining zamonaviy O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy jarayonlariga integratsiyasi ijtimoiy transformatsiya paradigmasi asosida konseptual model sifatida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Sayfiddin Qutuzning sarkardalik faoliyati asosida shakllangan vatanparvarlik g'oyalari va uning tarixiy tajribasi asosida yoshlarda milliy ong, tarixiy xotira va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tavsiyalar to'plami ishlab chiqildi. O'rganilgan ilmiy asoslar asosida umumta'lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarida foydalanish uchun "Vatanparvarlik saboqlari: Sayfiddin Qutuz namunasi" nomli amaliy-metodik qo'llanma ishlab chiqish asoslari yaratildi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy fanlar, falsafa, tarix va ma'naviyat yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlari, dars mashg'ulotlari va seminarlar mazmunini boyitishda amaliy qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy xulosalar asosida yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar (Mahalla qo'mitalari, ta'lim muassasalari) faoliyatiga integratsiyalash mumkin bo'lgan vatanparvarlikka oid targ'ibot-tashviqot materiallarini yaratish imkoniyati vujudga keldi. Tadqiqotda taklif etilgan yondashuvlar asosida ijtimoiy-falsafiy tahlil metodikasi orqali boshqa tarixiy shaxslar faoliyatini ham yoshlar tarbiyasida qo'llashga oid yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbaalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda Sayfiddin Qutuz shaxsiyati va uning sarkardalik faoliyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ilk bor mustaqil tahlil qilinib, vatanparvarlik fenomenining tarixiy shaxs timsolida falsafiy asoslari ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv ijtimoiy falsafa fanida yangi ilmiy izlanishlar uchun nazariy poydevor yaratadi. Natijalar ijtimoiy falsafa, tarix, pedagogika va ma'naviyat yo'nalishlaridagi ilg'or qarashlar bilan solishtirilib, ularning ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyati tasdiqlandi.

Amaliy jihatdan, tadqiqot natijalari asosida yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar va ta'lim muassasalari uchun "Vatanparvarlik saboqlari: Sayfiddin Qutuz namunasi" nomli amaliy-metodik qo'llanma tayyorlash imkoniyati yaratildi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy xulosalar ta'lim tizimidagi "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyat asoslari" va "Axloqshunoslik" fanlari mazmunini boyitishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar yoshlar ongida tarixiy xotira, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashda falsafiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy resurs sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sayfiddin Qutuz shaxsining sarkardalik faoliyati va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida ishlab chiqilgan ilmiy natijalarning amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida yoshlarda vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik va fuqarolik ongini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir:

Sayfiddin Qutuz shaxsiyatining ekzistensial va aksiologik paradigmalari asosidagi yangi falsafiy talqini uning rahbarlik fazilatlari "shaxsiy mavjudlikning ma'naviy ma'nosi" sifatida talqin qilinib, u vatanparvarlikning aksiologik modeli sifatida falsafiy jihatdan asoslab berilgan mazkur tadqiqot natijalarining bir qismi O'zbekiston Respublikasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ilmiy-ma'rifiy yo'nalishlarda, xususan, 2024-2025 yillar amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar davlat grantlari loyihasi doirasida ALM-202403110247 raqamli "Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha o'quv va ilmiy-metodik qo'llanmalar, uslubiy tavsiya, ma'rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish" maqsadli-amaliy loyihasida majmuasini yaratish" mavzusidagi maqsadli-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti 2025-yil 18-iyundagi 10/350-son Ma'lumotnomasi) Natijada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 4 yanvardagi 1/F buyrug'ining birinchi ilovasi bilan tasdiqlangan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 50-son yig'ilish bayonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini"da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

mamluklar davridagi siyosiy jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy rekonstruksiya orqali Qutuz faoliyatining milliy g'urur va ijtimoiy birdamlik qadriyatlariga ta'siri ochib berilgan ilmiy-nazariy xulosalari va amaliy taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi "Vatanparvarlik tarbiyasi" fani bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda, shuningdek, "Vatanparvarlik tarbiyasi" fani doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining 2025-yil 11-iyundagi 38/5-187-son Ma'lumotnomasi). Natijada, Sayfiddin Qutuzning Mamluklar davridagi siyosiy-ijtimoiy faoliyati, ayniqsa Mongollar xavfiga qarshi kurashdagi jasorati, yosh avlod ongida milliy g'urur,

fidoyilik va vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishdagi rolga falsafiy baho berishda xizmat qilgan;

vatanparvarlik tarbiyasi va tarixiy shaxslar namunasi o'rtasidagi uzviy aloqadorlik madaniy xotira va ijtimoiy ong nazariyalari asosida falsafiy tahlil qilingan ilmiy-nazariy taklif hamda uslubiy ishlanmalarida tadqiqot ishidan (O'zbekiston Respublikasi Milliy tiklanish demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2025-yil 16-iyundagi 02-02-60-son Ma'lumotnomasi). Dissertatsiya ishida keltirilgan taklif va tavsiyalardan Milliy tiklanish demokratik partiyasi Markaziy Kengashi tizimi faoliyatida foydalanildi;

Sayfiddin Qutuz obrazining zamonaviy O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy jarayonlariga integratsiyasi ijtimoiy transformatsiya paradigmasi asosida konseptual model sifatida ishlab chiqilgan tadqiqot natijalari "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tarix maydoni", "Qismat" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda qo'llanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Ma'rifat ijodiy birlashmasi davlat muassasasi 2025-yil 23-iyundagi 01-33/465 Ma'lumotnomasi). Ushbu natijalar keng jamoatchilikni yoshlar ongida vatanparvarlik, tarixiy mas'uliyat va milliy qadriyatlarni mustahkamlash zarurati bilan tanishtirishga xizmat qilgan. Natijada, tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy g'oyalar yoshlar tarbiyasida tarixiy shaxslar merosidan foydalanishning falsafiy asoslarini aniqlash, milliy identitetni mustahkamlash va ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishga amaliy hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida aprobatsiyadan o'tgan.

Natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari muallifning chop etilgan ilmiy ishlarida, jumladan 5 ta jurnal, 8 ta ilmiy to'plam va konferensiya materiallarida e'lon qilingan jami 13 ta ilmiy ishida o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 146 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sayfiddin Qutuz fenomenining tarixiy-falsafiy mohiyati va sarkardalik faoliyatining ijtimoiy nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Sayfiddin Qutuz shaxsiyati va sarkardalik faoliyatining sivilizatsion sharoitda shakllanishi, mamluklar saltanatining siyosiy-ijtimoiy tuzilmasida Qutuzning strategik roli: ijtimoiy ehtiyoj va tarixiy zarurat dialektikasi

hamda Qutuzning siyosiy-etakchilik faoliyati orqali jamiyatni birlashtirish mexanizmlari konsolidatsiyaviy kuch sifatidagi shaxs tadqiq qilingan.

Sayfiddin Qutuz shaxsini ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan o'rganish, avvalo, uni shunchaki tarixiy sarkarda sifatida emas, balki ijtimoiy ongning krizis holatida vujudga kelgan ruhiy-siyosiy fenomen sifatida talqin qilishni taqozo etadi. G.Gegelning tarix falsafasidagi konsepsiyasiga ko'ra, "Tarixiy jarayonning mohiyati — bu Ruhning o'zini anglash harakati bo'lib, u o'z maqsadini buyuk shaxslar orqali amalga oshiradi"¹⁴. Sayfiddin Qutuz shaxsida aynan shunday holat kuzatiladi: u tarixiy zaruratning, ya'ni musulmon dunyosini inqirozdan qutqarish zaruriyatining ongli timsoliga aylanadi. Uning faoliyati — tarixiy ruhning "o'zini saqlab qolish instinkti" bilan ijtimoiy maqsad birlashgan nuqtasidir. Sayfiddin Qutuzning siyosiy faoliyati Toynbi ta'riflagan "chaqiriq va javob" modelining klassik misolidir. Toynbi yozadi: "Har qanday sivilizatsiyaning tanazzuli tashqi bosim bilan emas, balki ichki ijodiy kuchning chaqiriqqa bergan javobi bilan belgilanadi"¹⁵. Mongol istilosi, siyosiy parokandalik va ruhiy tushkunlik holatida musulmon dunyosi yangi ijodiy javob topishi lozim edi. Bu javob Sayfiddin Qutuzning shaxsiy jasoratida, ijtimoiy birlashuvni tashkil etish mahoratida va "Ayn Jalut"dagi g'alabada mujassam bo'ldi. Toynbi "kreativ ozchilik" deb atagan ijtimoiy qatlam — inqirozdan chiqishning yagona vositasidir; Qutuz esa shu ozchilikning ruhi edi.

R.G.Kollingvudning "The Idea of History"¹⁶ asaridagi fikrcha, "tarixiy shaxs o'z davrining aqlini amalda davom ettiradi, tarixni tushunish orqali uni yaratadi"¹⁷. Bu jihatdan Qutuz — davrni faqat kechirgan emas, balki uni ongli tarzda shakllantirgan subyekt. U tarixni "boshdan kechiruvchi" emas, balki "boshqaruvchi" aqlga aylandi. Shu bois, Qutuzni ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida talqin etish uchun uni tarixiy zaruratning individual ifodasi, "umumiy ruhning shaxsda in'ikosi" sifatida ko'rish lozim. Karl Mangeym "Ideologiya va Utopiya"¹⁸ asarida shunday yozadi: "Har bir tarixiy davrda ijtimoiy ong muvozanatsizlik holatidan sintez holatiga o'tadi". Qutuz aynan shunday sintezni amalga oshirdi: diniy ruh, siyosiy iroda va ijtimoiy ongni yagona maqsad sari yo'naltirdi. U shunchaki harbiy g'alabani emas, balki jamiyatning o'z-o'zini anglash jarayonini qayta tikladi. Buning ijtimoiy mohiyati — ruhiy birlikni tiklash, siyosiy markazlashuvni "axloqiy zarurat" bilan muvofiqlashtirishdir. Al-Maqrizi o'zining "As-Suluk li Ma'rifat Duwal al-Muluk" asarida Qutuz haqida "kāna shuja'an, sālihan, mukhlisan lil-Islām" — ya'ni "u jasur, solih, Islomga sodiq edi"¹⁹ deb yozadi. Bu tarixiy guvohlik falsafiy ma'noda "aksiologik ideal"ni bildiradi. Qutuz shaxsida "amaliy axloq" bilan "siyosiy zarurat" birlashgan. Ammo bu birlashuv ham ziddiyatli: Ibn Xaldun "Muqaddima"da ta'kidlaganidek, "har bir siyosiy qudrat o'z tabiatiga ko'ra g'alaba zaruriyati va ijtimoiy adolat o'rtasida

¹⁴ Hegel G. W. F. Vorlesungen über die Philosophie der Geschichte. Stuttgart: Reclam Verlag, 1837. – B 91–144.

¹⁵ Toynbee A. J. A Study of History, Vol. II. Oxford University Press, 1946. – B 132–140.

¹⁶ Collingwood, R. G. The Idea of History. Oxford: Clarendon Press, 1946. – B 160–175.

¹⁷ Collingwood, R. G. The Idea of History. Oxford: Clarendon Press, 1946. – B 160–175.

¹⁸ Mannheim K. Ideology and Utopia. New York: Harcourt, 1936. – B 110–118.

¹⁹ Maqrizi, Taqi al-Din. As-Suluk li Ma'rifat Duwal al-Muluk, J. 1. Qohira: Dar al-Kutub, 1956. – B 520.

doimiy ziddiyatni olib yuradi”²⁰. Qutuz ham, aynan shu ziddiyat ichida harakat qilgan: uning hokimiyatga kelishida siyosiy pragmatizm axloqiy tamoyillarni ortga surgan. Shu ma’nodagi u Makiavellining “Il Principe”dagi “maqsad vositani oqlaydi” paradigmasiga yaqinlashadi²¹. Ammo farqi shundaki, Qutuz bu prinsipni shaxsiy manfaat emas, balki ijtimoiy zarurat uchun qo‘llagan.

E. Durkheim “De la Division du Travail Social” asarida “jamiyat o‘zining birligini axloqiy birdamlik orqali saqlaydi”²² deb yozadi. Qutuzning “Man lil-Islām in lam nakun nahnu?” (“Islom uchun biz bo‘lmasak, kim bo‘ladi?”) degan so‘zi aynan shu axloqiy birdamlikning konkret ifodasidir. Bu shior, ijtimoiy ruhning “faol birlik” bosqichiga o‘tganini ko‘rsatadi. Durkheim nuqtai nazaridan, bu holat — “kollektiv ongning intensivlashuvi”, ya’ni ijtimoiy energiyaning normativ yo‘naltirilgan harakatga aylanishidir. Ibn Xaldunning “asabiyya” konsepsiyasi ham bu jarayonni tushuntiradi. Uning fikricha, “asabiyya” — bu insonlarni yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi tabiiy kuchdir²³. Qutuz davrida bu kuch diniy yoki qabila birdamligi emas, balki e’tiqodga asoslangan ijtimoiy birlik shaklini oldi. U etnik asabiyani “axloqiy asabiyya”ga aylantirdi. Shu bilan u ijtimoiy tizimni yangi falsafiy asosga o‘tkazdi — bu, zamonaviy tilda aytganda, “ijtimoiy identifikatsiyaning rekonstruksiyasi”dir. Biroq, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, Qutuzning o‘limi bu tizimning zaif tomonini fosh etdi: jamiyatning ruhiy markazi haddan ortiq darajada bitta shaxsga bog‘langan edi.

Sayfiddin Qutuz fenomeni insonning tarixiy zarurat, ijtimoiy ong va shaxsiy iroda o‘rtasidagi murakkab falsafiy dialektikani o‘zida mujassam etgan noyob hodisadir. Qutuz shaxsiyati o‘z davrining siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy inqirozi fonida shakllanib, insonning irodaviy faolligi va tarixiy vaziyatni o‘zgartirish qudratini yaqqol namoyon qilgan. Ahmad Maqriziy o‘zining “Suluk davlatlarni bilish yo‘li haqida” asarida yozadi: “Qutuz mo‘g‘ul tahdidi qarshisida xalqning qo‘rquvini jasoratga, zaiflikni qudratga, bo‘ysunishni ozodlikka aylantirdi”²⁴. Ushbu fikr Gegel ta’riflagan “zaruratni erkinlik orqali anglash” g‘oyasiga yaqin, chunki Qutuz ijtimoiy zaruratni tushunib, uni o‘z ongli irodasi bilan o‘zgartira olgan. Bu holat ijtimoiy falsafaning muhim masalasi bo‘lgan “subyektiv irodaning obyektiv tarixiy jarayonlar bilan uyg‘unlashuvi”ni ifodalaydi. Maqriziy Qutuz faoliyatini ilohiy irodaning mahsuli sifatida talqin qilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy-falsafiy tahlil bu jarayonni inson irodasining o‘zini safarbar etish shakli deb baholaydi. Shu bilan birga, Gegel “Ruh fenomenologiyasi” asarida insonning “zaruratni erkinlik darajasiga ko‘tarishi”ni haqiqiy tarixiy harakat deb ataydi²⁵, bu g‘oya Qutuz faoliyatining mohiyatini to‘liq yoritadi.

Ibn Tangriberdiiy “Misr va Qohira hukmdorlarining yulduzlari” asarida shunday yozadi: “Qutuz lashkarni kuch bilan emas, iymon bilan birlashtirdi; u

²⁰ Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Beirut: Dar al-Fikr, 1377 h.q. – B 134–145.

²¹ Machiavelli, N. Il Principe. Firenze: Giunti Editore, 1532. – B 85–93.

²² Durkheim, É. De la Division du Travail Social. Paris: PUF, 1893. – B 272–278.

²³ Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Beirut: Dar al-Fikr, 1377 h.q. – B 145.

²⁴ Ahmad Maqriziy. Suluk li-ma’rifat du’al al-muluk. – Qohira: Adab nashriyoti, 1996. – I-jild. – B. 514–520.

²⁵ Георг Гегель. Феноменология духа. – Москва: Мысль, 1956. – С. 87–92.

harbiy hokimiyatni ma'naviy birdamlik vositasiga aylantirdi"²⁶. Bu yondashuv ijtimoiy falsafadagi kommunikativ nazariya bilan bog'liqdir. Yurgen Habermas "Muloqotli harakat nazariyasi"da jamiyatni birlashtiruvchi kuch "axloqiy muloqot va ishonch"²⁷da ekanini ta'kidlaydi. Qutuz aynan shu tamoyilni amalda ro'yobga chiqargan – u harbiy tizimni muloqotli birlikka aylantirib, e'tiqod orqali konsensus yaratgan. Ibn Tangriberdiy Qutuz faoliyatidagi bu jarayonni ilohiy ilhom bilan izohlaydi, ammo falsafiy nuqtai nazardan bu hodisani inson ongining "ijtimoiy birdamlikni ma'naviyat orqali tashkil etish qobiliyati" sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Fazlulloh Rashiddin o'zining "Jahon tarixlari majmuasi" asarida Qutuzni "inson sha'nini himoya qiluvchi irodaviy kuch"²⁸ sifatida baholaydi. Bu fikr Mishel Fuko tomonidan ishlab chiqilgan "hokimiyatning axloqiy modeli" konsepsiyasiga yaqin, chunki Fuko "hokimiyatning eng yuksak shakli boshqarish emas, balki inson ongini uyg'otishdir"²⁹ deya ta'kidlaydi. Qutuz shaxsida aynan shu hodisa kuzatiladi: u hokimiyatni irodaviy nazorat emas, balki ma'naviy uyg'onish vositasiga aylantirgan. Rashiddinning Qutuzni qahramon sifatida talqin etishi tarixiy realizmga yaqin bo'lsa-da, falsafiy jihatdan u insoniy ongning o'zini anglash jarayonini ifodalaydi. Rus faylasufi V.S.Molodoj "Ijtimoiy harakatlarning falsafiy asoslari" asarida "Tarixiy burilishlarni yuzaga keltiruvchi kuch – bu inson irodasining ijtimoiy energiyaga aylanishidir"³⁰ deb yozadi. Qutuz fenomenida bu jarayon aniq namoyon bo'ladi, chunki u shaxsiy jasoratni ijtimoiy ong bilan birlashtirib, xalqni birdamlik sari yetaklagan. V.N. Vasilyev "Ijtimoiy birdamlik fenomeni" maqolasida "jamiyatning eng muhim himoya mexanizmi – bu umumiy ma'naviy g'oya atrofida birlashish qobiliyati"³¹ deya qayd etadi. Bu holat Qutuz faoliyatining ijtimoiy falsafiy mohiyatini ochib beradi, chunki u tarixiy inqiroz sharoitida jamiyatni axloqiy birlik asosida qayta tashkil etgan.

Bekzod Abdirimov "Sayfiddin Qutuz – so'nggi zarba" asarida "Qutuz xalq ruhiyatidagi qo'rquvni e'tiqodga aylantirdi, jasoratni axloqiy burch sifatida namoyon qildi"³² deb yozadi. Bu fikr Erich Frommning "Erkinlikdan qochish" asaridagi "erkinlik mas'uliyat bilan o'lchanadi"³³ g'oyasiga mos keladi. Qutuz o'z erkinligini xalq manfaatiga xizmatga aylantirib, shaxsiy jasoratni ijtimoiy burch darajasiga ko'tardi. Bu jihatdan u Frommning "erkin inson" idealiga yaqin bo'lib, jamiyatda axloqiy uyg'onish manbaiga aylandi. Turkiyalik olim Altan Chetin "Jaloliddin Manguberdiyning qarindoshi bo'lgan mamluk sultoni Sayfiddin Qutuzning nasl-nasabi haqida mulohazalar" asarida "Sayfiddin Qutuz shaxsida turkiy jasorat va islomiy ma'naviyat uyg'unlashgan"³⁴ deya yozadi. Bu fikr

²⁶ Ibn Tangriberdiy. An-Nujum az-zahira fi muluk Misr va al-Kohira. – Qohira: Misr ilmiy jamiyati, 1968. – II-jild. – B. 273–289.

²⁷ Yurgen Habermas. Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1981. – S. 67–69.

²⁸ Фазлуллох Рашиддин. Комплекс мировых историй. – Москва–Ленинград: Издательство «Фан», 1946. – Т. III. – С. 57–58.

²⁹ Michel Foucault. La volonté de savoir. – Paris: Gallimard, 1975. – P. 133–137.

³⁰ Молодой В.С. Философские основания социальных движений. – Москва: Философия и общество, 2019. – С. 74–78.

³¹ Васильев В.Н. Феномен социальной солидарности. – Москва: Вопросы философии, 2015. – С. 123–127.

³² Bekzod Abdirimov. Sayfiddin Qutuz – so'nggi zarba. – Toshkent: Yoshlar mediagraf, 2021. – B. 143–148.

³³ Erich Fromm. Escape from Freedom. – New York: Harper, 1941. – P. 89–92.

³⁴ Altan Chetin. Celaleddin Mengüberdi'nin akrabası moğolları yenen harzemşahlı bir Memlük sultanı Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler. – Bursa: Ekin Yayınları, 2024. – S. 314–317.

A.G. Spirkinning “Inson va ong” asaridagi “ongning o‘zini anglash jarayoni insonni tarixiy zaruratni o‘zgartirishga olib keladi” g‘oyasi bilan hamohangdir³⁵. Sayfiddin Qutuz faoliyati milliy, diniy va sivilizatsion qadriyatlar uyg‘unligi orqali ijtimoiy tuzilmani yangilagan, bu esa ijtimoiy konsolidatsiyaning mohiyatini ifodalaydi.

Arnold Toynbi “Tarixni o‘rganish” asarida “Qutuz sivilizatsiyani saqlab qolgan ijodkor shaxs edi, u inqirozda xalq ruhini uyg‘otdi”³⁶ deya yozadi. Toynbining “ijodkor ozchilik” nazariyasi Qutuz faoliyatida to‘liq o‘z ifodasini topgan, chunki u xalqni passivlikdan faoliyatga, parokandalikdan birlikka olib chiqqan. Muhammad Said G‘ulir “Mo‘g‘ul istilosi va Ayn Jalut jangi” asarida “Qutuz askarlarning qo‘rquvini g‘ururga, shubhani ishonchga aylantirdi”³⁷ deb yozadi. Bu fikr Rendal Kollinzning “Emotsional energiya nazariyasi”da ta’riflangan “ruhiy uyg‘onish ijtimoiy birdamlikni yaratadi”³⁸ g‘oyasi bilan uyg‘un. Qutuz aynan shu psixologik energiyani ijtimoiy harakatga aylantirib, tarixiy burilish yaratgan. Shunday qilib, Sayfiddin Qutuz fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan inson irodasining tarixiy zaruratni yengishdagi rolini, axloqiy ongning jamiyatni birlashtiruvchi kuchini va shaxsning konsolidatsion qudratini mujassam etadi. U Gegelning dialektikasidagi “zaruratni erkinlikka aylantiruvchi ruh”, Habermasning “axloqiy muloqot orqali birlik”, Fromning “mas’uliyatli erkinlik”, Fuko va Spirkinning “ongni uyg‘otuvchi hokimiyat” g‘oyalari, shuningdek, Molodoj, Vasilyev va Toynbi tomonidan ilgari surilgan “ijodiy ijtimoiy subyektivlik” tamoyillarining amaliy ifodasidir. Qutuz shaxsiyati tarixiy sharoit mahsuli emas, balki inson irodasining ijtimoiy uyg‘onishga aylanish holatidir, u o‘z davrida ma’naviy birdamlik va axloqiy uyg‘onishning konsolidatsiyaviy kuchiga aylangan.

Dissertatsiyaning **“Sayfiddin Qutuz merosining ijtimoiy-falsafiy tahlili va vatanparvarlik qadriyatlari tizimida tutgan o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qutuz faoliyati prizmasida vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va qadriyatlar tizimidagi epistemologik o‘rni, Qutuz liderligining aksiologik talqini asosida tarixiy ong, ijtimoiy xotira va milliy identitet kontekstida va Qutuzning harbiy va diplomatik faoliyatida ijtimoiy birlik, intizom va axloqiy qat’iyat prinsiplarining ifodalanishi tadqiq qilingan.

Sayfiddin Qutuz shaxsi va faoliyati Sharq tarixida nafaqat siyosiy hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning qisqa, ammo sarmazmun hayoti o‘sha davrning sivilizatsion o‘zgarishlar oqimida inson va jamiyat, burch va vijdon, vatan va shaxsiyat o‘rtasidagi murakkab dialektik bog‘liqlikni ifodalovchi fenomen sifatida baholanishi mumkin. Qutuzning faoliyati mohiyatan ijtimoiy ongning faol shakli, vatanparvarlikning aksiologik mazmuni va tarixiy ongning yangilanishini mujassamlashtirgan tarixiy ongning “faol subyekti”dir. Uning shaxsiy hayoti va siyosiy yo‘li shunchaki tarixiy faktlar

³⁵ Spirкин А.Г. Человек и сознание. – Москва: Политиздат, 1988. – С. 64–68.

³⁶ Arnold Toynbee. A Study of History. – Oxford: Oxford University Press, 1976. – P. 449–450.

³⁷ Muhammad Said G‘ulir. Mo‘g‘ul İstilası ve Aynıçalüt Savaşı. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 2018. – S. 212–230.

³⁸ Randall Collins. Interaction Ritual Chains. – Chicago: University of Chicago Press, 2004. – P. 44–46.

ketma-ketligi emas, balki ijtimoiy xotiraning, milliy o'zlikning va axloqiy qat'iyatning falsafiy ekspressiyasidir.

Qutuzning butun faoliyatida vatanparvarlik tushunchasi soddalashgan siyosiy atama emas, balki inson mavjudligining ontologik asosiga aylangan. Uning tarixiy qarorlarida — xususan, mo'g'ul elchilarini jazolash yoki “O Islom!” degan nidolar bilan jang maydoniga kirib borishida — biz ijtimoiy-falsafiy ongning yuqori bosqichini, ya'ni qadriyatlar asosidagi ongli faoliyatni ko'ramiz. Bu holatda vatanparvarlik “ijtimoiy zarurat” emas, balki “axloqiy zarurat” sifatida shakllanadi. R Amitai-Preiss ta'kidlaganidek, Qutuzning har bir qarori “faqat strategik natijani emas, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini saqlab qolish maqsadini ko'zlagan”³⁹. Bu fikrni chuqurroq tahlil etganda, Qutuzning liderlik faoliyati ontologik jihatdan jamiyatning mavjudlik asosini — iymon, axloq va birdamlikni — himoya qilish bilan bog'liq bo'lganini ko'ramiz. Shunday qilib, Qutuz vatanparvarlikni “borliqni saqlovchi qadriyat” sifatida idrok etgan, bu esa uning faoliyatini sof siyosiy pragmatizm chegarasidan chiqarib, falsafiy-aksiologik sathga olib chiqadi.

Qutuzning liderligi, ayniqsa, aksiologik tahlil nuqtai nazaridan qaraganda, qadriyatlar tizimining muvozanatli tuzilishini aks ettiradi. U uchun kuch va adolat, intizom va rahm-shafqat, shijoat va vijdon bir-birini to'ldiruvchi, emas, balki bir-birini zarur qiluvchi qadriyatlar edi. Toynbi “Qutuz g'alabasi orqali musulmon sivilizatsiyasi o'zini himoya qildi, ammo bu himoya qurol bilan emas, ma'naviy irodani tiklash orqali amalga oshdi”⁴⁰ deya qayd etadi. Shu ma'noda, Qutuz fenomenida kuch axloqiy asosdan ajralmagan; u “axloqiy iroda”ni siyosiy kuch bilan uyg'unlashtira olgan kam sonli tarixiy shaxslardan biridir. Uning harbiy intizomi jamiyatning axloqiy intizomiga, harbiy g'alabasi esa ijtimoiy uyg'unlik g'oyasiga tayanar edi. Al-Maqrizi “Sayfiddin Qutuz askarlariga har bir zarba oldidan niyatni tozalashni, g'alaba oldidan esa tavakkulni o'rgatar edi”⁴¹ deya qayd etadi, bu esa harbiy strategiyaning ichida falsafiy refleksiyani ko'rsatadi. Epistemologik jihatdan, Qutuz faoliyatida bilish jarayoni voqelikni oddiy idrok qilish emas, balki uni ma'naviy anglash darajasiga ko'tarilgan. Mo'g'ullar bosqinini u faqat siyosiy xavf sifatida emas, balki iymon, ilm va madaniyat uchun mavjudlik inqirozi sifatida idrok etgan. Bu jihatdan, u bilishning soddalashgan empirik shaklidan “axloqiy bilish” darajasiga o'tgan. Bilish bu yerda faqat faktlarni anglash emas, balki qadriyatlarni tan olish, o'zligini anglash orqali harakat qilishni anglatadi. Shu bois Sayfiddin Qutuz harakati bilishning amaliy shakliga aylangan, u “bilish — vatan himoyasining shaklidir” degan falsafiy prinsipni amalda ifodalagan. Aksiologik tahlilda Qutuz qadriyatlar tizimini ichki izchillikda saqlagan. U iymon orqali g'ururni, intizom orqali erkinlikni, birdamlik orqali g'alabani kashf etgan. Al-Qalqashandi uni “qurol bilan emas, axloq bilan g'alaba qozongan sarkarda”⁴² deb ta'riflagan. Bu baho tasodifiy emas, balki falsafiy

³⁹ Amitai-Preiss, R. (1995). *Mongols and Mamluks: The Mamluk-Ilkhanid War, 1260–1281*. Cambridge University Press, Pp. 35–45.

⁴⁰ Toynbee, A. (1976). *Mankind and Mother Earth*. Oxford University Press. – P 449.

⁴¹ Al-Maqrizi, A. (1997). *Al-Suluk li-ma'rifat duwal al-muluk*. Cairo: Dar al-Kutub, vol. I, Pp. 506–520.

⁴² Al-Qalqashandi, S. (1913). *Subh al-Asha fi Sina'at al-Insha*. Cairo, Pp. 63–64.

mohiyatga ega: u yerda axloq — kuchning, birdamlik — mavjudlikning, vatanparvarlik esa ma'nodorlikning mezoni sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, Sayfiddin Qutuz faoliyati jamiyatda qadriyatlar ierarxiyasini qayta tiklagan, jamiyatni "o'zligiga qaytish"ga da'vat etgan.

Tarixiy ong nuqtai nazaridan, Sayfiddin Qutuz faoliyati ijtimoiy xotiraning faol shakliga aylangan. Anne Broadbridge o'z tadqiqotida "Qutuz va ilk mamluk sultonlari tarixiy o'zlikni tiklash uchun nasl, xotira va siyosiy qadriyatlarni birlashtirish orqali yangi legitimlik modeli yaratgan"⁴³ deya ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, Qutuz milliy identitetni harbiy g'alaba orqali emas, balki tarixiy xotirani axloqiy birlik bilan uyg'unlashtirish orqali shakllantirgan. Uning hayotida shaxsiy g'alaba bilan milliy g'alaba, shaxsiy iroda bilan ijtimoiy xotira birlashgan. Shu bois u milliy ongning falsafiy arxetipi sifatida namoyon bo'ladi. Qutuzning butun faoliyati davomida ijtimoiy birlik g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. U Bahri mamluklar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etib, harbiy tizimni axloqiy tamoyillar asosida qayta tashkil qilgan. Bu jarayonda intizom shunchaki harbiy tartib emas, balki ijtimoiy muvozanatning aksiologik sharti sifatida shakllangan. U askarlardan faqat itoat emas, balki anglangan maqsadni, iymonli xizmatni talab qilgan. Shu bilan u jamiyatning ma'naviy uyg'unishiga sababchi bo'lgan. Sayfiddin Qutuz fenomenining falsafiy mohiyati shundaki, u ijtimoiy mavjudlikning uch asosiy darajasini — bilish (epistemologik), axloqiy baholash (aksiologik) va amaliy birlik (ontologik) darajalarini birlashtira olgan. Uning faoliyati g'oyaviy jihatdan Sharq falsafasining "axloq orqali mavjudlikni saqlash" tamoyiliga tayanadi.

Sayfiddin Qutuz faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili nafaqat uning tarixiy harakatlarining voqelikdagi natijalari, balki bu harakatlarning jamiyat xotirasida qanday aks etgani, qanday qiymatga aylangani va milliy o'zlikni shakllantirishdagi epistemologik rolini aniqlashga qaratilgandir. Qutuz timsolida mujassam bo'lgan vatanparvarlik qadriyati, birinchi navbatda, umumiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, milliy-madaniy birlikni himoya qilish va jamiyatning axloqiy-intellektual uyg'unligini tiklash tamoyillariga asoslanadi. Uning harbiy va diplomatik faoliyati, ayniqsa Ayn Jalut jangida namoyon bo'lgan qat'iyati, ijtimoiy birlik va axloqiy majburiyatni jamiyat ongiga chuqur singdirgan aksiologik dalildir⁴⁴. Qutuzning vatanparvarlik qadriyati sifatida shakllanishi va u orqali tarixiy ongni uyg'otishi – bu faqatgina siyosiy natijalar emas, balki qadriyatlar tizimi kontekstida uning epistemologik o'rnini belgilaydi. U orqali tarixiy haqiqatga jamiyat ongining ishonchi mustahkamlanadi. Bu jihatdan Qutuz fenomeni F.Fukuyama ta'riflagan "tarixiy identitetning tayanch figuralaridan biri" sifatida qaraladi, chunki u "ijtimoiy barqarorlik uchun zarur bo'lgan tarixiy xotirani shakllantiruvchi liderlardandir"⁴⁵.

Sayfiddin Qutuz faoliyati prizmasida vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va qadriyatlar tizimidagi epistemologik o'rni chuqur tahlil qilingan

⁴³ Broadbridge, A. (2024). The Dynastic Impulse in the Early Sultanate. *Mamluk Studies Review*, Vol. 27, Pp. 30–40.

⁴⁴ Irwin R. *The Middle East in the Middle Ages: The Mamluks and Their Times*. - London: Allen & Unwin, 2003. - P. 172.

⁴⁵ Fukuyama F. *Identity: The Demand for Dignity and the Politics of Resentment*. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2006. - P. 211.

bo'lib, bu jarayonda vatanparvarlik faqat hissiy-ruhiy hodisa emas, balki tarixiy ong, ijtimoiy xotira va milliy identitetning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim g'oyaviy asos sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan. Jumladan, Qutuzning sarkardalik va davlat arbobi sifatidagi faoliyati orqali u ilgari surgan g'oyalarning gnoseologik asoslari, ya'ni ularning bilish, anglash va qadrlash mezonlari aniqlanib, bu g'oyalar ijtimoiy ongni shakllantirishda g'oyaviy katalizator sifatida qaralgan. Qutuz liderligining aksiologik talqini esa uning qadriyatlar tizimidagi o'rnini tahlil qilish imkonini bergan bo'lib, bu talqinda ayniqsa tarixiy zaruratlar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashgan etakchilik fazilatlarini, xususan, adolat, fidoyilik, qat'iyat, o'zlikni anglash va ma'naviy jasorat kabi elementlar asosiy determinantal omillar sifatida ajratib ko'rsatilgan.

